

## Loyiha ijrosining 5 - kuni

Yurtboshimizning 5 ta muhim tashabbusini o'zida qamrab olgan va talabalarning faoliyatini mazmunli o'tkazish uchun Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti tomonidan Yoshlar haftaligi 2019 loyihasi o'tkazildi. 5-kun 5-tashabbus xotin-qizlar uchun tadbirlar, tanlovlар, intellektual o'yinlar va munozara debatlari bilan davom etdi. Dastlab erta tongdan 5-yakuniy kun uchun tayyorgarlik ishlari boshlab yuborildi. Soat 10:00 da Fakultetlar kesimida har bir fakultet alohida na'munali professor-o'qituvchi hamda chaqirilgan mehmon ayol ishtirokida fakultet talaba qizlar uchun "Yoshlik chog'imda" nomli davra suhbatlari o'tkazildi. Tashkil etilgan davra suhbatlarini Yoshlar bilan ishlash bo'yicha prorektor, institut psixolog, institut xotin-qizlar qo'mitasi raisi kuzatib borishdi. Albatta, barcha fakultetlarga minnatdorchilik bildiramiz. Ayniqsa, psixologimiz qizlar bilan ko'proq uchrashuvlar tashkil etishi kerak.



### **2.Talaba-qizlar o'rtasida badminton bo'yicha musobaqa o'tkazildi. Mana natijalar:**

1-o'rin GM fakulteti

2-o'rin QXM fakulteti

3-o'rin YRB fakulteti

### **3.Munozara-debat o'yinlari yarim final va final o'yinlari bo'lib o'tdi.**

1-o'rin SXTE va B fakulteti

2-o'rin QSXET va QXM fakulteti

3-o'rin yo'q!



3.Rus guruhlarda talaba-qizlar o'rtasida "Creative Shou" nomli tanlov o'tkazildi. Barcha fakultetlar erkin mavzuda juda yaxshi tayyorgarlik bilan kelganini chiqishlardan anglab olish qiyin emas edi deydi Bosh hakam Jamshid Komiljonov. "Men barcha jamoalarga rahmat aytaman" deydi hakamlar hay'ati a'zolaridan biri. Lekin, kamchiliklar uchun albatta uzr so'raymiz. Albatta, bu tanlov madaniyat saroyimiz ta'mirdan chiqgandan so'ng yana bir marotaba o'tkazamiz. Shunda, barchasi a'llo bo'ladi.

Hozircha natijalar quyidagicha: Ikkita 1-o'rin, ikkita 2-o'rin, 3-o'rin yo'q. Hakamlar xulosasi quyidagicha bo'ldi.

1-o'rin SXTE va B fakulteti jamoasi hamda YRB fakulteti jamoasi;

2-o'rin GTQ fakulteti hamda QSXET fakulteti jamoasi;

### **4.Talabalar turar joyida Yoshlar haftaligi doirasida "Xalqaro talabalar kuni"ga bag'ishlab, talabalar uchun maxsus Yoshlar bilan ishlash bo'yicha prorektor tomonidan Konsert tashkil qilib berildi. Konsertda san'at ustalari hamda qo'shiqchilar ishtirok etishdi. Talabalar esa mazza qilib raqsga tushishdi.**



### **5.Toshkent city bo'ylab sayohat tashkil etildi. Talabalar O'z yetakchilari bilan birga sayohatga borishdi.**

### **6.Talabalar turar joyida Fakultetlararo talaba-qizlar o'rtasida "Brain ring"(Viktorina) o'yini o'tkazildi.**

1-o'rin SXTE va B fakulteti talaba-qizlar jamoasi;

2-o'rin QXM fakulteti talaba qizlar jamoasi;

3-o'rin QSXET fakulteti talaba-qizlar jamoasi;

Barcha ishtirokchilarga katta rahmat aytamiz va g'oliblarni tabriklaymiz. Endi shuncha g'oliblarga nima berilar ekan deganlar ham albatta topiladi. "MILLION" QVZ guruhi aytgandek maqtov yorlig'i, maqtov yorlig'i yoki faxriy yorliq emas. Aslini olganda bu ham e'tibor. Lekin, bu ham vatanimiz mulki. Biz esa g'oliblar uchun institut rektorining maxsus talabalar uchun kerakli sovg'alarini va diplomlarni tantanali topshiramiz. 17-noyabr Yakshanba soat 10:00 Mustaqillik metrosi Yoshlar ijod saroyi biz sizni taqdirlash marosimida kutamiz. Barcha institut jamoasini taklif etamiz. Taqdirlash bilan bir qatorda konsert dasturi ham bo'lib o'tadi. Kirish 9:30 da to'xtatiladi. Bizni kuzatib boring yorqin loyihalar oldinda.



**Institut yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti axboroti**

**Institut matbuot xizmati rahbari Rahimboy Jumaniyozov**